XALQ DEPUTATLARI DENOV TUMANI KENGASHINING QARORI

Denov tumani, Sh.Rashidov ko‘chasi 238-uy. 190500, tel.: (+99876) 41-31-400

2023 - yil 13 - yanvar VI-69-7-8-111-K/23 Denov tuman hokimligi

Denov tumanidagi nomsiz ko‘chalarni nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasining 2022-yil 23-noyabrdagi 01-05/264-sonli yig‘ilish bayoni hamda “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi 2022-yil 20-dekabrdagi 08-11383-sonli Respublika Kadastr agentligining davlat ekspertizasi xulosasini ko‘rib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman komissiyasining 2022-yil 23-noyabrdagi 01-05/264-sonli yig‘ilish bayoni hamda “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi 2022-yil 20-dekabrdagi 08-11383-sonli Respublika Kadastr agentligining davlat ekspertizasi xulosasi ma’qullansin.

2. Tumandagi **nomsiz ko‘chalar** nomlari ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman statistika bo‘limi (U.Aliqulov), tuman qurilish bo‘limi (A.Elmurodov) va davlat xizmatlari markazi (O.Xolmirzayev) birgalikda **nomsiz ko‘chalarni** ro‘yxatdan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish

hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman qurilish bo‘limi (A.Elmurodov) hududlardagi **nomsiz ko‘chalar** nomlarini yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

5. Tumandagi **nomsiz ko‘chalar** ro‘yxati Kengash qarori asosida Respublika Kadastr agentligining davlat reyestri elektron bazasiga kiritish maqsadida viloyat hududiy komissiyasiga taqdim etilsin.

6. Ushbu qarorni tuman hokimligi Axborot xizmati (F.To‘rayeva) tuman hokimligining ijtimoiy saytida va “Chag‘oniyon” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kirsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Ch.Murodov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **A.Allamuradov**

Xalq deputatlari Denov tuman
Kengashining
2023 yil 13 yanvardagi
VI-69-7-8-111-K/23-son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Kadastr agentligi tomonidan ekspertiza berilgan Denov tumanidagi mavjud nomsiz ko‘chalarni

ro‘yxati

T.P	Geogtafik obyektni turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman tomonidan berilgan takliflar	Respublika Kadastr agentligi ekspert komissiyasi xulosasi
Ko‘chalar					
1	**Ko‘cha**	Namuna MFY	Nomlanmagan	Xidirali Ro‘ziboyev-1 berk	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2	**Ko‘cha**	Namuna MFY	Nomlanmagan	Xidirali Ro‘ziboyev-2 berk	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3	**Ko‘cha**	Namuna MFY	Nomlanmagan	Xidirali Ro‘ziboyev-1 tor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4	**Ko‘cha**	Namuna MFY	Nomlanmagan	Xidirali Ro‘ziboyev-2 tor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.